

FUTUROLOGIYA: TARIX, BUGUN VA KELAJAK

Karimova Gulnoza

*Sotsiologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Farg‘ona davlat universiteti,
O‘zbekiston, Farg‘ona sh.*

Annotatsiya: Futurologiya fan sifatida o‘tgan asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan. O‘sha davr olimlari asrlar davomida ko‘rish va insoniyat kelajagini ko‘rishga intilishgan. Ular qanday texnologiyalar paydo bo‘lishi, odamlarning turmush tarzi qanday o‘zgarishi, qanday muammolarni hal qilishlari haqida savollar berishdi. O‘shandan beri futurologiya rivojlanib, o‘zgarib bormoqda, tobora murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib bormoqda.

Kalit so‘zlar: *jamiyat, kelajak, futurologiya, davlat, insoniyat, koinot, sotsiologiya.*

Insoniyat uni ertaga nima kutayotganini bilishni xohlaydi. Bu qiziqish tafakkur paydo bo‘lgandan beri mavjud. Shu yo‘lda ular yulduzlarni kuzatib ertangi ob-havoni, kuzning qanday kelishiga qarab qishning qanday bo‘lishini bilishga, jonivorlar harakatlariga qarab falokatlardan ogoh bo‘lishga uringanlar. Kelajakka bo‘lgan intilish nafaqat tabiatga nisbatan, balki insonlar taqdirini bilishga ham qaratilgan edi. Bu yo‘lda folbinlar, munajjimlar faoliyat ko‘rsatgan. Antik adabiyotni kuzatadigan bo‘lsak ham voqealarni oldindan bilishga bo‘lgan harakatlarni yaqqol ko‘ramiz. Sofoklning «Shoh Edip» asarini olib ko‘raylik. Unda yangi tug‘ilgan chaqaloqning taqdiri aytib beriladi va bu bashorat oxir-oqibat yuzaga chiqadi.

Bugungi kun odamini ham kelajak qiziqtiradi. Lekin bu jarayon anchagina ilmiy tus olib, fan sifatida shakllangan. Ilmiy bashorat qilishni yaqin o‘tmishning mevasi desak, xato qilamiz. Uning ildizlari ancha chuqur tomir otgan. Bir xitoy mutafakkiridan shogirdi so‘ragan ekan:

- Kelajakni oldindan bilib bo‘ladimi? Men bunga shubha qilaman.

Shunda ustoz javob beribdi:

- Tasavvur qil, sening uzoqdagi bir do‘sting kasal. Ikkita ot turibdi. Biri ozg‘in, uzoq yo‘lga chidamaydi. Ikkinchisi baquvvat, yaxshi yem yegan, uzoq yo‘lga yaroqli. Qay birini minasan?

- Albatta, ikkinchisini.

- Unda nega kelajakni oldindan bilib bo‘lmaydi deyapsan?!

Darhaqiqat, kelajak bugunning davomi, bugunning mahsulidir. Uni o‘zimiz yaratamiz. Bugun nafaqat oddiy odamlar hayotida, balki davatlarning uzoq vaqtga mo‘ljallangan siyosati, uzoq vaqtlik dasturlarida ilmiy prognozlash (asoslash) juda ahamiyatli ekanidan xabaringiz bor.

«Futurologiya» termini lotincha «futurum» - «kelajak» va yunoncha «logos» - «fan» so‘zlaridan olingan bo‘lib, kelajakni ekstrapolyatsiya (narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan, xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish) yo‘li

bilan mavjud texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy holatni tahlil qilgan holda oldindan aytib berishga harakat qiladi.

Futurologiya kelajakni tahlil qilish uchun turli usullardan foydalanadi. Masalan, u o'tgan bilim va tendentsiyalar asosida kelajakni bashorat qilishi mumkin. Bu ekstrapolyatsiya deb ataladi. Yoki biz mutaxassislarning fikriga asoslangan "Delphi" usulidan foydalanishimiz mumkin. Kelajakni bashorat qilish juda qiyin vazifadir. Shuning uchun uni hal qilish uchun turli xil yondashuvlar va usullar talab qilinadi. «Futurologiya» terminini sotsiolog Osip Flektxaym fanga kiritgan. U 1943 yili do'sti, olimlardan biri Oldosu Xaksliga yozgan xatida ushbu terminni ishlatish tashabbusi bilan chiqadi va Xaksli buni ma'qullaydi.

Kelajakda ilm-fan bizga hayotimizni yaxshilash, bugungi kunda duch kelayotgan muammolarni hal qilishda yordam berish imkoniyatini berishi mumkin. Shu ma'noda, futurologiya nafaqat kelajak haqidagi fan, balki bizning imkoniyatlarimiz va dunyonи yaxshiroq joyga aylantirish istagimiz haqidagi fan.

Futurologiyani ilmiy fantastika bilan aralashtirib yubormang. Ilmiy fantastika-bu ijodkorlik mahsuli, futurologiya-bu fan. Birinchisi kelajak haqida qiziqarli g'oyalarni taklif qilishi mumkin bo'lsa, ikkinchisi o'z bashoratlarini haqiqiy ilmiy dalillar va tendentsiyalarga asoslaydi.

«Futurolog» atamasi mo'jizaviy tarzda bashorat qilishni bildirmaydi, balki mavjud voqelikning taraqqiy qilish darjasи, tezligi, o'zgarishlarning oqibatlarini tahlil qilib o'rGANADI. Hozirda futurolog sifatida tan olingan olimlar bor. Ular asosan texnologik an'analarni o'zlashtirgan va o'z kitoblarida kuzatish natijalari, fikr va xulosalari, bashoratlarini keltirib o'tishgan. Shunday mutaxassislardan biri Olvin Tofflerdir. Uning «Madaniyat iste'molchilarи», «Uchinchi to'lqin nazariyasi», «Kelajak bilan to'qnashuv» kabi asarlari mashhur.

O.Tofflerning «Kelajak bilan to'qnashuv» kitobi 1970 yillarda yozilgan bo'lishiga qaramay haligacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bu asarda yaqin kelajakda insoniyat hayotida kechadigan o'zgarishlar va ularning oqibatlari haqida so'z boradi. Mavjud voqelik asosida xulosa chiqarilgan. Jamiyatimizda yuz berayotgan va yuz bermoqchi bo'layotgan yangiliklar, biz ko'rib turgan dunyonи butunlay ostin-ustun qilib tashlaydi. Toffler yashash sur'atining tezlashishini bashorat qilar ekan, ma'lum bo'lgan, butundunyo shaharlashuv jarayoni, ishlab chiqarishning o'sishi, yangidan-yangi iste'mol buyumlarining ko'payishi kabi ma'lum faktlarga tayanadi.



XXI asrga kelib esa hodisalarining ro'y berish sur'ati, jarayonlarning uzluksiz ravishda kechishini kuzatayapmiz. Axborot olish va axborot uzatishning yanada osonlashishi, internetning kirib kelishi, uyali aloqaning keng tarqalishi, masofalarni pisand qilmayapti.

Olvin Toffler «Oson almashtirsa bo'ladigan inson» iborasini ishlatadi. Bu borada psixolog Kortni Tolning fikri e'tiborga loyiq: «Uncha ko'p bo'limgan odamlar bilan yaqin munosabatlarga asoslanadigan barqarorlik samarasiz bo'lib chiqadi... Harakatchanlikning bundan keyingi kuchayishi va odamlarning o'zaro juda tez do'stlik o'rnatish qobiliyati hamda shu qadar tez uni to'xtatib qo'yish yoki shunchaki unutish shunga olib keladiki, kelajakda o'tmisht uchun xarakterli bo'lgan bir nechta ko'p yillik do'stona munosabatlar o'rnini ko'pgina qisqa muddatli do'stlik aloqalari egallaydi».

Insonning inson oldidagi qadri yo'qolishini buyumlarning qadrsizligi bilan izohlash mumkin. Masalan, har bir inson oxirgi chiqqan telefonni sotib olgisi keladi. Chunki bunisi oldingidan yaxshi, uning funktsiyalarida ko'proq qulayliklar mavjud. Shunday qilib, eski telefonning qadri yo'qoladi (garchi uni biror yaqin odamimiz sovg'a qilgan bo'lsa ham).

Olvin Toffler hayotning sur'ati tezlashishini bashorat qilar ekan, Frantsiyadagi bistro(an'anaviy taomxona)larning yo'qolishi va fast-fudlarning ko'payishi bilan izohlaydi. Ya'ni, ilgari frantsuzlar ochiq havodagi bistroga kirib, bir-ikki soat bemalol ovqatlanishardi, endi ular fast-fud deb ataladigan jo'ngina peshtaxta oldida tik oyoqda sutli kokteylni yutib, yana chiqib ketaveradi.

Kelajakda insonning boylikka, moddiylikka bo'lgan munosabati ham o'zgarishi kutilmoqda. «Intellektual mulk hamma moddiy boyliklardan ustun bo'ladi. Inson qandaydir moddiy manbaga ega bo'limgan holda jahd qilib boylik yaratadi», deydi Toffler.

Insoniyat yaqin kelajakda axborot oqimining kuchaygan to'lqinlari orasida qolishi kutilmoqda. Mutaxassis Robert Xilyard quyidagi hisob-kitobni keltiradi: «Hozirgi sur'atlar saqlanib qoladigan bo'lsa, bugun tug'ilgan go'dak kollejni tugatayotgan paytda mavjud axborotning hajmi to'rt baravar ko'payadi, u ellik yoshga to'lganda esa bilimlar miqdori 32 martaga oshadi. Buning ma'nosi shuki, jamiki inson bilimlarining 97 foizi go'dak tug'ilgandan keyin dunyoga keladi».

Ijtimoiy tarmoqlar ko'paygan sari har bir odam o'z xabarini internetda tarqatish imkoniga ega bo'lmoqda. Axborotlar shu qadar ko'pki, gohida yolg'on ma'lumotlarni to'g'risidan farqlay olmaymiz. AQShlik futurolog olimlar bu hali holva ekanligini aytishmoqda, deb yozadi «Diydor aziz» nashri.

Emi Webb sun'iy ongning axborot texnologiyalaridagi o'rni haqida gapirar ekan, u sekin-asta jurnalistlarni ham orta qoldirishini aytdi. Mutaxassisning ta'kidlashicha, yaqin 10 yilda ovozni tanish texnikasi yordamida o'z kompyuterimiz bilan gaplasha olamiz. Axborot iste'molchilari har qanday ko'lAMDAGI axborotga ega bo'lishlari uchun kengroq imkoniyatlar tug'iladi. Yangi dasturlar yordamida bemalol yolg'on video va ovozlar ham yaratish mumkin bo'ladi. Misol sifatida Vashington universiteti tomonidan yaratilgan Barak Obamaning yolg'on videosini keltirish mumkin. Maxsus dasturlar yordamida B.Obamaning og'iz harakatini o'zgartirib, u kerakli mavzuda «gapirtirilgan». Kelajakda bu kabi yolg'on videolarni har kim ham osongina yarata oladi, deydi Emi Webb.



Yolg'on ma'lumotlar shu qadar keng va tez tarqaladiki, oqibatda ular ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga ham sabab bo'ladi. Tasdiqlangan, to'g'ri ma'lumotlar esa nisbatan sekin tarqaladi. Aniq ma'lumot manbasi jurnalistlar emas, davlat bo'lishi mumkin.

2027 yilga kelib smartfonlar hukmronligi yakuniga yetadi va internet qurilmalari ustunligi boshlanadi. Internet va «aqlli» uy jihozlarining to'laqonli integratsiyalashuvi ro'y beradi. Oddiygina quyoshdan to'suvchi ko'zoynaklar internetga kiruvchi ob'yektga aylanadi. Hatto linzalarda ham internet olamiga kirishni taminlash bo'yicha loyihibar ishlanmoqda. Ha, bu hozir cho'pchakka o'xshab tuyulishi mumkin, lekin bizni aynan shunday kelajak kutmoqda.

Biz inson DNK axborotlarini kompyuterga solib, uni tashqi ko'rinishini yaratishini buyurdik. O'xshashlik qoyil qolarli darajada. Kelajakda bemalol istalgan kishining nusxasini ham yarata olish mumkin bo'ladi. Mashinalar bora-bora yaxshilik va yomonlikni ham ajrata oladilar, deydi futurolog.

ADABIYOTLAR:

1. <https://hi-news.ru/tag/futurologiya>
2. Кравченко И.И. Футурология // Новая филос. энцикл. — М. : Мысль, 2010. — Т. 4. — С. 283
3. <http://www.harc.ru/slovar/2363.html>
4. Бозаров, Д. М., & Каримова, Г. Й. (2021). МУРАККАБ ИЖТИМОЙ ТИЗИМЛАРДА ЎЗ-ЎЗИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ МОДЕЛИНИНГ ЎРНИ. *Oriental Journal of Social Sciences*, 1(1), 1-9.
5. Teshaboev, M., Karimov, U., & Karimova, G. (2023). SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF APPLIED PHILOSOPHY. *Oriental Journal of Social Sciences*, 3(05), 69-80.
6. Dadaboeva, J. (2022). THE BASICS OF CIVIL LEGAL REGULATION OF SEPARATION FROM MARRIAGE. *Research Focus*, 1(4), 253-261.
7. Dadaboeva, J. (2024). THE IMPORTANCE OF FAMILY STRENGTH IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 99-105.
8. Mamajonova, D. (2023). WAYS TO COMBAT CRIME AND IMPROVE THE CRIME PREVENTION SYSTEM. *IMRAS*, 6(7), 227-236.
9. Mamajonova, D. (2024). LEGAL BASIS FOR THE FORMATION OF INTELLECTUAL CULTURE IN YOUNG PEOPLE. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 341-348.
10. Madumarova, N. (2024, February). THE ESSENCE OF LAW, ITS SIGNS AND FUNCTIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 21, pp. 68-71).
11. Nilufar, M. (2023). FORMATION OF LEGAL CULTURE AMONG YOUNG PEOPLE AND ITS IMPORTANCE IN BUILDING A CIVIL SOCIETY. *IMRAS*, 6(7), 416-421.
12. Karimova, G. (2024). The Use of Modern Innovative Pedagogical Technologies in Sociology. *Miasto Przyszłości*, 44, 358-362.
13. RUSTAMOV, I. (2024). IBN SINO FALSAFIY QARASHLARINI O 'RGANILISH TARIXIDAN. *News of UzMU journal*, 1(1.1. 1.), 180-183.
14. Rustamov, I. (2023). ABU ALI IBN SINO ASARLARIDA TARBIYA VA AXLOQIY TARBIYA MASALALARINING FALSAFIY TAHLILI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(12).
15. Gulnoza, K. (2023). SOCIAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF COOPERATION “FAMILY-NEIGHBORHOOD-EDUCATIONAL INSTITUTION”. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(6), 99-104.
16. Karimova, G. Y. (2023). THE IMPORTANCE OF THE FORMATION OF CIVIC ENGAGEMENT AND SOCIAL ACTIVITY AMONG YOUNG PEOPLE. *Gospodarka i Innowacje*, 41, 563-570.

17. Gulnoza, K., & Niginabonu, K. (2022). QUESTIONNAIRE AND ITS APPLICATION. *Research Focus*, 1(3), 78-82.